«Uzbekistan Airways» AJ 16-avgustdan 31-avgustgacha xalqaro qatnovlarning va mahalliy yo'nalishlar bo'yicha muntazam parvozlarning bir qismi majburiy bekor qilinishi haqida xabar qiladi.

2020 15 Avgust

Parvozlar amalga oshiriladigan mamlakatlar va O'zbekiston Respublikasining ma'muriy markazlaridagi epidemiologik cheklovlarni hisobga olgan holda xalqaro va mahalliy qatnovlar jadvaliga ozgartirishlar kiritildi.

Aviakompaniyaning veb-sayti orqali yoki «Uzbekistan Airways Sales» (ilgari HABA) filialining kassasida AJning 2020-yil avgust oyidagi bekor qilingan qatnovlariga aviachiptalarni sotib olgan yo'lovchilarga to'lov shakliga muvofiq pul mablag'larini vaucher shaklida olish yoki 2020-yil 01-sentabridan boshlab rejalashtirilgan AJ qatnovlariga bir martalik qayta bronlash imkoniyati taqdim etiladi.

«Uzbekistan Airways» AJning xorijdagi sotuvlar ofisida yoki aviakompaniyaning O'zbekiston Respublikasi va xorijdagi aviatashuvlar sotuvi bo'yicha agentlaridan aviachiptalarni sotib olgan yo'lovchilar, pul mablag'larini vaucher shaklida olish yoki uchish sanasini 2020-yil 01-sentabridan boshlab rejalashtirilgan AJ qatnovlariga qayta bronlash uchun aviachipta sotib olingan joyga murojaat qilishlari kerak.

Bekor qilingan qatnovlarga aviachiptalar sanasini boshqa sanaga qayta bronlash yo'lovchilar tomonidan qo'shimcha to'lovlarsiz amalga oshirilishiga e`tibor berishingizni so'raymiz.

Aviakompaniya call-markaziga ko'plab qo'ng'iroqlar kelib tushayotganligi sababli, xizmatni kutish vaqti sezilarli darajada oshdi. Shu munosabat bilan, yo'lovchilardan qatnovlar bekor qilinishi bilan bog'liq qo'ng'iroqlar bilan call-markazga murojaat qilmasliklarini iltimos qilamiz.

Eng so'nggi ma'lumotlar aviakompaniya veb-sayti va AJning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

To'g'ri tushunishingizni umid qilamiz.

O'zingiz va yaqinlaringizni ehtiyot qiling!